

**"XALQ OG'ZAKI IJODIDA MILLIY QADRIYATLARNING ULUG'LANISHI"****Matkarimova Qamara Baxtiyarovna***Urganch ixtisoslashtirilgan san'at maktabi*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida milliy qadriyatlarning ulug'lanishi, bugungi kunda yôqolib ketayotgan odatlarimiz, xalq boshidan ôtgan og'ir kunlar hamda bola ongiga vatan tuyg'usini singdirish, ôzbekligini anglatish turli xil Yevropa odobidan saqlash haqida sôz yuritiladi.*

**Annotation:** *This article talks about glorification of national values in folklore, traditions that are disappearing today, difficult times of the nation's beginnings, instilling the sense of homeland in children's minds, and protecting them from various European manners.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о прославлении национальных ценностей в фольклоре, традициях, которые сегодня исчезают, трудных временах зарождения нации, воспитании в сознании детей чувства родины, ограждении их от различных европейских нравов.*

**Kalit sôzlar :** *Baxtli, ijtimoiy, sa'nat sohasi, Vil'yam Tomson, territoriyasi, fol'k, Xurmuz, Siyovush, Baxman va Doro,*

**Kirish qismi :**

Xalq ijodi — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqqa folklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan Xalq ijodi ning turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga moye ravishda shakllanib, avloddanavlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan.

**Asosiy qismi:**

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati,

va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan histuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'yfikrlari o'z ifodasini topgan.

Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan (qarang Ibtidoiy san'at). Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar,

masxarabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoklar, naqqoshlar, kulollar, o'ymakorlar, kashtado'zlar va h.k. san'ati yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo bo'lgan. Ammo uning yaratilishi va o'zlashtirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe bo'lishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xattiharakat, yangilik barqaror an'analar va ustozshogird munosabatlari doirasida ro'y bergan. Bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan. Xonalarida ikki devor, Buxoroda — bir yoki ikki, Fargona va Toshkentda to'rt devor qo'shsinchli bo'ladi. Tokchalar xo'jalik buyumlarni saqlash, taxmonlar ko'rpato'shak va sandiqlarni joylashtirish imkonini beradi. Ular oppoq ganch hoshiyali bo'lib, mayda nafis naqshlar va ular zamiridagi kizil, ko'k, sariq ranglar xonaga o'ziga xos go'zallik bag'ishlagan.

O'zbekiston tog' hududidagi turar joylari ham o'ziga xos me'moriy an'analarga ega. Tog'ning qiya yon bag'rida joylashgan qishloqlar panoramasi uzoqsan ko'p qavatli yaxlit kompozitsiyali uyga o'xshab ketadi. Uylarning tuzilishi, loyihasi ko'proq o'sha joy tabiiy iqlim sharoitiga va landshaftiga bog'liq hodda shakllangan. Shu sababli har bir viloyat tog' vohasi va daralarda qurilgan uylar mujassamotini bir necha turga bo'lish mumkin.

O'zbek xalqining eng qadimgi davrdan shu kunga qadar etib kelgan madaniy meroslaridan biri xalq og'zaki badiiy ijodidir. Ilmiy adabiyotda qo'llanadigan halq og'zaki badiiy ijodi yoki fol'klor termini xalqning uzoq asrlardan beri davom etib kelayotgan og'zaki badiiy ijod namunalarini o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotga birinchi marta 1846 yilda Vil'yam Tomson tomonidan kiritilgan fol'klor termini inglizcha ikki so'zdan - «fol'k» ( ) «lor» ( ) dan iborat bo'lib, xalq donishmandligi donoligi kabi ma'nolarni anglatadi.

Oktyabr to'ntarilishiga qadar bu soha «xalq poeziyasi», «el adabiyoti» inqilobdan so'ng esa «fol'klor», «xalq og'zaki ijodi» kabi nomlar bilan atalib kelindi. Hozirgi vaqtda «O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi» yoki «O'zbek fol'klori» deb atalganki, bu termin mazkur kursning mazmuni, maqsad vazifalarni to'la to'kis ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodi-fol'klor xalq tomonidan asrlar o'tib, rivojlanib, uzluksiz davom etib kelayotgan kollektiv ijodidir. U xalqning ijtimoiy hayotini, tarixini, kurash yo'lini yorqin ifodalaydi. Haqiqatdan ham halq og'zaki badiiy ijodi xalq tarixining badiiy in'ikosidir. Chunki, fol'klor asarlarida ijodkor xalqning ko'p asrlik tarixi, turmush tajribasi, tabiat hodisalariga munosabati, ijtimoiy hodisalarga qarashi badiiy ifodalangan. O'rta Osiyo territoriyasida yashagan qabilalar uzoq davom etgan tarixiy protsess natijasida chatishib ketganlar va hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi otabobolari vujudga kelgan.

Quldorlik maydonga kelishi bilan savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi. Bu territoriyada Samarqand, Buxoro, Farg'ona kabi yirik shaharlar paydo bo'ldi.

Arxeologik qazilmalar shuni isbotlaydiki, o`sha davrlarda yashagan ota-bobolarimiz kemasozlik, baliqchilik bilan ham shug`ullanishgan. Ma`lumki, ibtidoiy kishilar tabiat hodisalari va jamiyatdagi voqealarning tub sabablarini bilmaganlar. Ular tabiatda yashin, dovu, suv toshqini, zilzila kabi tabiat hodisalarining mohiyatini tushunmas edilar. Inson, er, osmon, quyosh, oy kabilarni jonli hodisalar deb tasavvur qilar, ularga sig`inar, ayrim hayvonlarni muqaddas deb bilardi.

Ibtidoiy kishi tasavvurida tabiatda unga do`st va dushman bo`lgan ikki xil kuch mavjud. Ana shu tasavvur zaminida turli miflar, afsonalar paydo bo`lgan.

Bu xaqida A.M.Gor`kiy yozkvchilarning 1-se`zdidida so`zlagan nutqida quyidagilarni aytgan edi: «Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning ma`lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy mag`zini chuqurroq tushunishni istardim. Bularning asosiy g`oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarning yukini engillashtirishga, ularning ish unumini oshirishlariga, to`rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlariga qarshi qurollanishlariga hamda so`z kuchi-«avrash», «afsun» yo`li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo`lgan hodisalarga ta`sir etishlariga qaratilgan».

Shunday qilib, mif kishilarnng zaif tomonlarinigina emas, balki ularning kuch-qudrati va orzu-armonlarini ham fantaziya asosida tasvirlaydi, mujassamlashtiradi, u poeziya va san`atning ravnaq topishiga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham qadimgi mif afsonalarni o`rganish M.Gor`kiy yozganidek: «Insonlarga dushman bo`lgan tabiat hodisalari, stixiyalarga ta`sir qilish istagi» qanday bo`lganligini yaqqol tasavvur qilishga imkon beradi.

Haqiqatdan ham afsona va miflar real tarixiy sharoit va foqealardan kelib chiqqan. Inson turmushiining og`ir mashaqqatlari, inson orzu-istaklari aks ettirilgan qadimgi mif va afsonalar «insoniyat jamiyatining bolalik davri» haqidagi go`zal badiiy lavhalardir. Mif va afsonalarning qachon paydo bo`lgani, ularda hayot haqiqati qay darajada aks etganini aniqlash qiyin. Shunday bo`lsa-da, afsona va miflarda aks ettirilgan qator hollar real bog`liq, real voqea-hodisalarga asoslangani aniq. Xalq og`zaki ijodida yaratilgan bu mif va afsonalar keyincha yozma adabiyotga kirib borgan, davrlar o`tishi bilan qayta-qayta ishlanib silliqkana borgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» deb ataladi. Kitobda Ahuramazda («donishmand», «yuksak», «daholi») dunyoni yaratgan xudo deb e`tirof etiladi.



O`rta Osiyo xalqlarining qadimgi mif va afsonalarda asosan yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat o`rtasidagi kurash tasvirlanadi. Ko`pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki kuch o`rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Miflarda hikoya qilinishicha, ikki olam ya`ni yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olami Axura Mazda (Xurmuz) yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. «Go`yo 3000 yil mobaynida bu ikki olam bir-biri bilan to`qnashmagan. Yaxshilik va Nur olamini bilib qolgan Axriman unga qarshi kurash ochmoqchi bo`ladi. Xurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi uch ming yillikda osmon, er, suv, o`simlik, hayvonlar va boshqalar hamda birinchi insonni yaratdi. Shundan so`ng uchinchi davr (6000-8999) kurash davri boshlandi. Er yuzi turli kuchlarning to`ngashuvi makoniga aylandi. Axriman birinchi insonni o`ldirgan bo`lsa ham, lekin kishilik urug`ini yo`qotib yubora olmaydi. To`rtinchi davr (9000-11999)da yaxshilik va kuch nurlari yomonlik va zulmat ustidan g`alaba qozonadi.»<sup>2</sup>

Ana shu ikki kuch o`rtasidagi kurash halq og`zaki ijodida Kayumars, Siyovush, Baxman va Doro, Mitra, Anaxita, Gerasp, Elikbek kabi afsonaviy va mifologik obrazlarda mujasamlashgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Drevnie avtori o Sredney Azii. T., 1940 s 31-32.
2. Broginskiy I.S. «Iz istorii tadjikskoy narodnoy poezii» M., 1956.121-bet
3. Tolstov S.P. «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab». O`zFA nashriyoti. T., 1964
4. O`zbek adabiyoti tarixi.Fan,T., 1978
5. Gulomov.Ya. Xorazmning sug`orilish tarixi.Fan.1959.
6. Qayumov A.P. «Qadimiyat obidalarini».T., 1978.